

INSON va qonun

2025-YIL
11-NOYABR
SESHANBA

№ 45
(1509)

www.hudud24.uz



www.adolatmarkazi.uz



telegram.me/hudud24official/



facebook.com/hudud24official/

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!



“ADLIYA KITOBXONLARI CHEMPIONATI”

g'oliblari aniqlandi

Kitob o'qish ko'ngil mulki, kitobga oshno bo'lish qudratli bo'lishning asosiy sharti. “Men doimo jannat kutubxonaga o'xshagan joy bo'lsa kerak, deb o'ylayman” deydi argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxes, “Buvimning aytishicha, Xudo kitobni odamlar xato qilib, afsus chekmasliklari uchun tuhfa qilgan ekan” deydi Jon Bayur. Bu tariflarning o'zi kitobga teng keladigan boylik yo'qligini isbotlab turibdi.

Adliya vazirligida “Adliya kitobxonlari chempionati” bo'lib o'tdi. Vazirlik markaziy apparati xodimlari o'rtasida o'tkazilgan tanlovda 20 nafarga yaqin xodim ishtirok etdi.

Tanlov ishtirokchilar tanlagan adabiyot bo'yicha og'zaki taqdimot tarzida o'tkazildi. Taqdimotlar hakamlar hay'ati tomonidan 4 ta mezon bo'yicha, ya'ni tanlagan kitobning maqsadga muvofiqligi: xodimning bilimi va kasbiy mahoratini rivojlantirishga ko'maklashish ahamiyatiga ega ekani, taqrizda mustaqil fikrlash va dunyoqarashning, shaxsiy munosabatning aks etgani, taqrizning tahliliy jihati: asoslar va argumentlarga boyligi, qiyosiy va tanqidiy tahlil usullaridan samarali foydalanganlik, nutqning ravonligi, sof o'zbek tilida ekani, tasviriy va badiiy ifodalarga boyligi, so'zlar to'g'ri qo'llangani bo'yicha baholandi.

Ishtirokchilar tanlagan adabiyotlar orasida nafaqat huquqiy adabiyotlar, balki jahon adabiyotining nodir va mashhur asarlarining borligi alohida e'tirofga sazovor bo'ldi. Jumladan, Yuy Xuaning “Yashamoq” romani, Devid Baxning pul haqida afsonalar to'g'risidagi “Latte omili” asari, Baxtiyor Abdug'afurning “Qonli gullar vodiysi: Madaminbek”, Gabriel Garsia Markesning “Oshkora qotillik qissasi”, Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” kabi asarlari haqidagi taqdimotlar barchada katta taassurot qoldirdi.

Tanlov yakunlariga ko'ra, Komila Xamroyeva – 1-o'rin, Samandar Quدراتov – 2-o'rin, Mahbuba Sayfullayeva – 3-o'rin sohibi bo'ldi.

Tanlov g'oliblari “Faxriy yorliq” va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Marusa HOSILOVA,
“Inson va qonun” muxbiri



3-NOYABR



Adliya vaziri o'rinbosari N. Muxammadiyev Koson tumanida mahalliy tadbirkorlar bilan yuzma-yuz muhokama qilib, ularning faoliyati davomida duch kelayotgan huquqiy va amaliy muammolarini tingladi.



4-NOYABR



Prezidentning 2025-yil 19-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida”gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida adliya vaziri o'rinbosari M. Istamov boshchiligidagi mahalla yetiligi va boshqa aloqador tashkilotlar tomonidan mazkur tadbirni o'tkazish chora-tadbirlariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.



5-NOYABR



Adliya vazirligi va uning tizimidagi adliya organlari va muassasalari faoliyati bilan tanishtirish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti talabarlari uchun “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o'tkazildi.

Tadbir davomida talabalar Adliya kutubxonasi, “Adolat ayvoni” innovatsion xonasi, Adliya muzeyi, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va Chilonzor tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi faoliyati bilan tanishdilar.



6-NOYABR



5-6-noyabr kunlari Jeneva shahrida (Shveysariya) O'zbekiston Respublikasi-ni Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha Ishchi guruhning navbatdagi – o'n birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ishchi guruh yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri o'rinbosari M. Istamov tomonidan JSTga a'zo bo'lish jarayonining muhim bosqichi hisoblangan milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar yuzasidan taqdimot o'tkazildi.



7-NOYABR

O'zbekiston va Ozarbayjon Adliya vazirliklari o'rtasida notariat tizimini rivojlantirish sohasida tajriba almashish bo'yicha muhim onlayn muloqot bo'lib o'tdi. Muloqot natijasida sohada va mutaxassislar bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi tashabbuslar ishlab chiqildi.



6 TALQIN

☐ **JAMIYAT** taraqqiyotining har bir bosqichida qonun ustuvorligi va huquqiy barqarorlik masalasi doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni kamaytirish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida profilaktika xizmati faoliyati hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish esa nafaqat nazorat jarayonini yengillashtiradi, balki samaradorlikni ham keskin oshiradi.



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING FAOLIYATI TARBIYAVIY VA IJTIMOYIY XUSUSIYAT KASB ETA BOSHLADI

Bugungi kunda O'zbekistonda ichki ishlar tizimidagi islohotlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ta'kidlashicha, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xavfsiz hayot sharoitlarini yaratishda innovatsion yondashuvlar va raqamli yechimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, profilaktika inspektorlarining faoliyati ham zamon talablariga mos ravishda yangilanmoqda. Ular faqat ma'muriy

vazifalarni bajarish bilan cheklanib qolmay, axborot tizimlari orqali jinoyatchilikka moyil shaxslarning holatini kuzatib borish, tahlil qilish va ularni ijtimoiy moslashtirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirmoqda.

2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun profilaktika faoliyatining huquqiy asosini belgilab berdi. Mazkur hujjatda profilaktik choralar tizimi, huquqbuzarlikka

moyil shaxslarni aniqlash, ularni hisobga olish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Qonunning 35-moddasida qayd etilishicha, profilaktik hisobga olinishi mumkin bo'lgan shaxslar qatoriga ilgari sudlanganlar ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng, o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno; o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar; shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga; o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilar; Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlar va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlar kiradi. Ushbu shaxslar bilan ishlashdagi asosiy maqsad ularni jinoyatga qaytmaslikka undash, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiini tiklash va huquqiy ongini oshirishdan iborat.

So'nggi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida raqamlashtirish siyosati izchil yo'lga qo'yildi. Hozirda profilaktika inspektorlari o'z xizmat

vazifalarini bajarishda planshet qurilmalaridan keng foydalanmoqda. Bu qurilmalar orqali shaxs haqidagi ma'lumotlar elektron bazalarga kiritiladi, har bir profilaktik suhbat yoki tekshiruv natijasi real vaqt rejimida yuritiladi. Bunday raqamli yondashuv natijasida ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanadi, xatoliklar soni qisqaradi va nazorat mexanizmi kuchayadi. Eng muhimi, bu tizim profilaktika inspektoriga tezkor qaror qabul qilish va o'z hududidagi vaziyatni aniq tahlil qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi natijasida "E-ma'muriy ish" elektron tizimi faol ishlamoqda. Bu tizim orqali ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar rasmiylashtiriladi, bayonnomalar va qarorlar elektron imzo bilan tasdiqlanadi.

Bugungi kunda profilaktika inspektorlarining faoliyati faqat nazorat bilan cheklanib qolmay, tarbiyaviy va ijtimoiy xususiyat kasb eta boshladi. Jinoyatchilikning oldini olishda fuqarolar bilan muloqot, ularning huquqiy bilimlarini oshirish va axborot makonida sog'lom fikr muhitini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar orqali aholi bilan interaktiv muloqot olib borish imkoniyatlari kengaymoqda.

Qumrinisa ABDURASULOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori,
Dilnoza KARAKETOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti dotsenti

☐ **BUGUNGI** raqamli davrda internet va axborot texnologiyalarisiz hayotni tasavvur etish qiyin. Har bir kunimiz smartfon, noutbuk yoki kompyuterdan foydalanish bilan boshlanadi. Ayniqsa, talabalar uchun raqamli texnologiyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylangan: onlayn darslar, ilmiy izlanishlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, elektron xatlar – bularning barchasi talaba hayotining kundalik ko'rinishiga aylangan.

Biroq internetning keng qo'llanishi bilan bir qatorda axborot xavfsizligi muammolari ham ortib bormoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi, soxta xabarlar (feyklar), kiberhujumlar, phishing va boshqa tahdidlar har bir foydalanuvchini, ayniqsa, yoshlarni jiddiy xavf ostiga qo'ymoqda. Shu bois, talabalar orasida axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish – kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Axborot xavfsizligi nima?

Axborot xavfsizligi – bu ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash tizimidir, ya'ni shaxsiy ma'lumotlar, telefon raqami, bank rekvizitlari, ijtimoiy tarmoq akkauntlari va boshqalar hech kim tomonidan noqonuniy ravishda o'g'irlanmasligi, o'zgartirilmasligi yoki yo'q qilinmasligi kerak. Qisqacha aytganda, axborot xavfsizligi – bu foydalanuvchining internetda o'zini xavfsiz his qilishi, ishonchli manbalardan foydalanishi va shaxsiy axborotni himoya qila olishidir.

KECHIKTIRIB BO'LMAS

vazifa



Eng ko'p uchraydigan kiber tahdidlar

Fishing (phishing) – firibgarlar soxta saytlar yaratib, foydalanuvchidan login, parol yoki karta ma'lumotlarini olishga urinishadi. Masalan, bank yoki universitet saytiga o'xshatilgan sahifaga kirgan talaba o'z ma'lumotini o'zi firibgarlarga topshirib qo'yadi.

Soxta akkauntlar va "shantaj". Talabalarning shaxsiy suratlari yoki yozishmalari noqonuniy yo'l bilan olinib, keyinchalik bosim vositasi sifatida ishlatiladi.

Ommaviy Wi-Fi tarmoqlari orqali ma'lumot o'g'irlash. Kafe, kutubxona yoki kampusdagi umumiy tarmoqlar xavfsiz bo'lmisligi mumkin.

Ularga ulanib, foydalanuvchining telefon yoki kompyuteridagi ma'lumotlarni olish osonlashadi.

Mobil o'yinlar va ilovalar orqali aldanish. Ayrim ilovalar foydalanuvchidan shaxsiy ma'lumot yoki to'lov ma'lumotlarini so'rab, ularni suiiste'mol qiladi.

O'qituvchi va ota-onalarning roli

Axborot xavfsizligiga o'rgatish – bu faqat universitetning emas, balki ota-ona va o'qituvchilarning ham vazifasi. Ular yoshlar bilan munozam suhbat o'tkazib, internetdagi xavflar va ulardan himoyalaniish yo'llari haqida tushuntirib borishlari zarur.

Birgina loqaydlik yoki beparvolik ko'plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar farzandlariga ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli va mas'uliyatli foydalanish zarurligini uqtirib borishi lozim. Chunki axborot xavfsizligi – bu shaxsiy xavfsizlik, ruhiy barqarorlik va jamiyat farovonligining tarkibiy qismidir.

Xulosa qilib aytganda, axborot xavfsizligi madaniyati – bu internetdan ongli foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni ehtiyot qilish va kiber tahdidlardan himoyalaniish madaniyatidir. Bu bir kunda o'rganiladigan bilim emas – bu hayot tarzi, mas'uliyat va madaniyatdir. "Ertaga o'rganaman" deyish bu sohada kechikish demakdir. Chunki har bir daqiqa – yangi tahdid va yangi imkoniyat demakdir.

Demak, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishni bugun boshlash – ertangi xavfsiz jamiyatning kafolatidir.

Ravshanbek SULTANOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi